



2. Johnson M. (2021). Mobile-Assisted Language Learning: Theory and Practice.
3. Kumar S., & Singh A. (2020). The Role of Automatic Speech Recognition in Second Language Pronunciation Training.
4. Lee H.(2023). Transforming the Teacher's Role in the AI-Enhanced Language Classroom.
5. Prensky M.(2021). Digital Natives, Digital Immigrants Revisited.
6. Vygotsky L.S.(1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
7. Warschauer M., & Healey D.(2019). Computers and Language Learning: An Overview.
8. Shofi, A.T., Ainiyah, M. (2024). Enhancing English Oral Communication Skills Through the Use of Artificial Intelligence. Linguists Journal of Linguistics and Language Teaching
9. M.M. Murodova (2025) «Sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayonidagi afzalliklari» Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

TURLI MADANIYAT VAKILLARI O‘RTASIDAGI KOMMUNIKATIV STRATEGIYALAR

Chirchiq davlat Pedagogika universiteti
Turizm Fakulteti Xorijiy til va adabiyoti
2- kurs talabalari;
Abdikarimova Go’zal Bahodir qizi
Minavarova Durdona Jamol qizi
Ilmiy rahbar: Ochilova Xursanoy Maxmud qizi

Annotatsiya: Ushbu tezisda turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi kommunikativ jarayonning o‘ziga xos jihatlari batafsil yoritiladi. Madaniyatlararo muloqotda yuzaga keladigan tushunmovchiliklar, stereotiplar, nutq madaniyati farqlari hamda samarali kommunikativ strategiyalar haqida fikr yuritiladi. Amaliy misollar orqali muloqotda hurmat, faol tinglash, moslashuvchanlikning o‘rni ko‘rsatib beriladi. Tahlillar filologiya nuqtayi nazaridan olib boriladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ strategiya, madaniyatlararo muloqot, stereotip, nutqiy farq, moslashuvchanlik, nonverbal kommunikatsiya.

КОММУНИКАТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ МЕЖДУ ПРЕДСТАВИТЕЛЯМИ РАЗНЫХ КУЛЬТУР

Аннотация: В данной диссертации подробно рассматриваются особенности коммуникативного процесса между представителями разных культур. Обсуждаются недопонимания, стереотипы, различия в речевой культуре и эффективные коммуникативные стратегии, возникающие в межкультурном общении. На практических примерах показана роль уважения, активного слушания и гибкости в общении. Анализ проводится с точки зрения филологии.

Ключевые слова: коммуникативная стратегия, межкультурная коммуникация, стереотип, речевое различие, гибкость, невербальное общение.

COMMUNICATIVE STRATEGIES BETWEEN REPRESENTATIVES OF DIFFERENT CULTURES.

Abstract: This thesis examines in detail the specific aspects of the communicative process between representatives of different cultures. It discusses misunderstandings, stereotypes, differences in speech culture, and effective communicative strategies that arise in intercultural communication. Practical examples show the role of respect, active listening, and flexibility in communication. The analysis is conducted from the point of view of philology.

Keywords: communicative strategy, intercultural communication, stereotype, speech difference, flexibility, nonverbal communication.



KIRISH

Globallashuv jarayonlari natijasida turli madaniyat vakillarining o‘zaro muloqoti tobora ortib bormoqda. Xalqaro hamkorlik, migratsiya, turizm va ta’lim sohasidagi almashinuvlar bu jarayonni tezlashtirmoqda. Ammo madaniy farqlar muloqot jarayonida turlicha talqinlar va tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Filologiya sohasi aynan ana shu farqlarni o‘rganib, nutq madaniyati va muloqotning samarali bo‘lishiga xizmat qiladigan strategiyalarni taklif etadi.

Filologiya va tilshunoslik sohasi ana shu jarayonlarni ilmiy o‘rganib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qiladi hamda madaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyatini ta’minlovchi strategiyalarni ishlab chiqadi. Shuningdek, madaniyatlararo muloqotni o‘rganish jarayonida insonning madaniy sezgirliги, empatiyasi va o‘zaro hurmat tamoyillari alohida o‘rin tutadi.

ASOSIY QISM

Madaniyatlararo muloqotda nutqiy strategiyalar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Har bir xalqning o‘ziga xos muloqot tamoyillari mavjud. Masalan, g‘arb mamlakatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapirish odati hisoblansa, Sharq xalqlarida bilvosita va muloyim ifodalar ustunlik qiladi. O‘zbek milliy muloqotida hurmatga asoslangan “sizlash” va katta-kichikni ajratish muhim omil sifatida qaraladi.

Madaniyatlararo muloqotda quyidagi strategiyalar keng qo‘llanadi:

1. Hurmatni saqlash strategiyasi – suhbatdoshning yoshi, maqomi va qadriyatlarini e’tiborga olish.
2. Faol tinglash strategiyasi – suhbatdoshga e’tibor berish, uning fikrini qadrlash.
3. Moslashuv strategiyasi – vaziyatga mos so‘z va ohangni tanlash.
4. Stereotiplarning oldini olish strategiyasi – shaxsni jamiyatdagi tasavvurlar asosida baholamaslik.
5. Noverbal belgilarni tushunish – imo-ishoralar, tana harakati ma’nosini to‘g‘ri anglash.

Masalan, inglizlar suhbat vaqtida ko‘zga tik qarashni hurmat deb biladi. Ammo ba’zi Osiyo mamlakatlarida bunday holat qo‘pollik yoki tajovuzkorlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, ba’zi xalq vakillari rad javobini yumshoq shaklda ifoda etadi, o‘zbeklarda esa rad etishdan oldin uzr so‘rash odati mavjud.

O‘zbekiston ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy va ta’limiy hamkorlikni kuchaytirar ekan, xorijliklar bilan muloqot masalasi yanada dolzarb bo‘lmoqda. Chet ellik talabalarning mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalariga kirib kelishi turli madaniyat egalari bilan hamkorlikni yanada oshiradi. Bu esa kommunikativ moslashuvchanlikni talab qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda chet el kishilari bilan muloqotda avvalo til bilimiga e’tibor kuchli, ammo madaniy farqlar yetarli darajada hisobga olinmaydi. Eng ko‘p uchraydigan xatolik — stereotiplarga asoslanishdir. Bundan tashqari, noverbal belgilar noto‘g‘ri talqin qilinishi ham muloqot jarayonida muammolar tug‘diradi.

Shu munosabat bilan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha treninglar, amaliy mashg‘ulotlar va suhbatlar tashkil qilish zarur. Bu yoshlar uchun kelgusida chet elda o‘qish yoki ishlashda juda katta yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo muloqot samarali kechishi uchun nafaqat tilni bilish, balki madaniy qadriyatlar va muloqot odatlaridagi farqlarni ham chuqur tushunish kerak. Turli strategiyalarni bilish va amalda qo‘llash orqali tushunmovchiliklarning oldini olish, o‘zaro hurmat va samimiylikka asoslangan munosabatni rivojlantirish mumkin.

Kelajakda xalqaro aloqalar yanada kengayib borar ekan, har bir insonning madaniyatlararo kompetensiyasi uning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatining muhim omiliga aylanadi. Shu jihatdan, ta’lim jarayonida til o‘rganish bilan birga, madaniy tafovutlarni o‘rganish, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik tamoyillarini shakllantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. Xudoyberganova. Nutq madaniyati va kommunikatsiya. Toshkent: 2021.
2. Samovar L., Porter R. Communication Between Cultures. 2014.
3. Hall E. The Silent Language. New York, 1973.
4. Karimov A. Madaniyatlararo muloqot asoslari. Toshkent, 2019.
5. Gerasimova N. Madaniyatlararo muloqot psixologiyasi. Moskva, 2018.